



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 9-aprel, № 69 (9240)

Payshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## TOSHKENT VILOYATINI RIVOJLANTIRISH VA ISHSIZLIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-aprel kuni Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyati poytaxtga yaqin joylashgan uchun hudud aholisi ish o'rinlari, daromad va turmush sharoiti ham Toshkent shahri darajasida bo'lishini kutishini ta'kidladi. Shu bois viloyat tadbirkorlik va biznes muhitini yaxshilash, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida namuna bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tildi.

So'nggi yillarda hududda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-2025-yillarda viloyat uchun 23 ta qaror qabul qilinib, ular doirasida byudjet, bank kreditlari va xorijiy investitsiyalar hisobidan yirik resurslar yo'naltirildi. Shu davrda 14 ta yangi sanoat zonasini tashkil etildi, 115 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi, 237 ta yangi eksportchi paydo bo'ldi va 300 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan bir yil ichida Parkent, Ohangaron va Olmaliqda elektrotexnika, metallurgiya, farmatsevtika, to'qimachilik, mashinasozlik va tog'-kon sohalaridagi yirik loyihalar ishga tushirildi. Poytaxt ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan 87 ta korxonaga va yangi sanoat loyihalarini Toshkent viloyatiga ko'chirish ishlari boshlandi, hozirgacha 15 dan ortiq to'qimachilik korxonalarini ko'chib keldi va 4700 nafar fuqaro o'z yashash joyida ishlash boshladi.

Umuman, 2025-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 7,1 foizga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,6 foizga, qishloq xo'jaligi 4,2 foizga, xizmat ko'rsatish sohasi 15,2 foizga, qurilish-pudrat ishlari hajmi 9,8 foizga o'sdi.

2026-yilda viloyat iqtisodiyotini 9,1 foizga, sanoatni 8,8 foizga, xizmatlarni 17,2 foizga, qurilish ishlari 15 foizga va qishloq xo'jaligini 6,6 foizga oshirish rejalashtirilgan. Buning uchun 6,2 milliard dollar investitsiya jalb etish va 2,8 milliard dollar eksportni ta'minlash mo'ljallangan.

Bundan buyon tumanlar salohiyatini sun'iy intellekt yordamida tahlildan o'tkazib, sanoat, investitsiya va eksport bo'yicha yangi

imkoniyatlarni aniqlash zarurligi qayd etildi. Bu ishlar samarasini yanada oshirish uchun viloyatda Raqamli taraqqiyot – sun'iy intellekt markazini ochish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Viloyatda sanoatni boshqarish bo'yicha yangi tizim joriy etilayotgani, hokimning sanoat masalalari bo'yicha o'rinbosariga investitsiya va eksportni ko'paytirish, tayyor va yarimtayyor mahsulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanishi ma'lum qilindi.

Joriy yilda 883 ta mahallani kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, 84,7 ming aholini doimiy ishga joylashtirish, 37 ming norasmiy ish o'rnini legallashtirish va 13,3 ming ishsiz fuqaroni kasbga o'qitish vazifasi qo'yildi.

Sanoatdagi qo'shimcha o'sish manbalari sifatida qator yangi loyihalar ko'rsatib o'tildi. Jumladan, Angren shahrida keramik va keramogranit plitka ishlab chiqarish, Yangiyo'l tumanida "Tinchlik" kichik sanoat zonasini, Parkent tumanida "Parkent Pharm" erkin iqtisodiy zonasini, O'rta Chirchiq tumanida mebelchilikka ixtisoslashtirilgan klaster, qo'ziqorin yetishtirish va shirin makkajo'xori ishlab chiqarish, Yangiyo'l'da turkiyalik samoyador ishtirokida baliqchilik majmuasi, Nurafshon shahrida to'qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga ham alohida e'tibor berildi.

Qayd etilganidek, chorva va parranda go'shti yetishtirish hajmi hanuz poytaxt va viloyat ehtiyojlari uchun yetarli emas. Shu bois Ohangaron tumanida chorvachilikni rivojlantirish va ozuqa bazasini kengaytirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bu yerda qo'ychilik va echkichilik ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etib, 50 ming bosh naslli qo'y va echki olib kelish rejalashtirilgan. Ohangaron o'rmon xo'jaligi balansidagi o'rmon bilan qoplangan 60 ming gektar yaylovni auktsion orqali ajratish mexanizmi joriy etildi.

Umuman, 2026-yilda 2,1 trillion so'mlik 78 ta chorvachilik loyihasi amalga oshirilib, 496 ta ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, 35 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yangi yerlarni o'zlashtirish, bog' va uzumzorlar barpo qilish rejalashtirilgan.

Parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha Oqqo'rg'on va Ohangaron tumanlarida yiliga 30 ming tonna parranda go'shti yetishtirish quvvatiga ega, qiymati 45 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Qayd etilganidek, piyoz va sarimsoqpiyozdan gektariga alinayotgan daromad g'alladan bir necha o'n barobar yuqori. Shuning uchun Ohangaron g'alla maydonlarini yuqori daromadli ekinlarga bosqichma-bosqich o'tkazish taklifi ma'qullandi.

Qisqa vaqt ichida Bo'stonliqdagi "Amirsoy" qishki kurort majmuasi va "Beldersoy resort" maskani xalqaro darajadagi turizm markazlariga aylangani qayd etildi. Endilikda shunday loyihalarni Parkent, G'azalkent, Ohangaron va Angrenning tog'li hududlarida ham amalga oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Masalan, Parkentda "Oltin bel" cho'qqisi va unga tutash hududda mehmonxonaga, "shale" uslubidagi uylar, dam olish va ko'ngilochar majmuasini o'z ichiga olgan tog'-chang'i kurort zonasini, Ohangaron tumanida esa "Movi tog'lar" dam olish oromgohi negizida zamonaviy turizm majmuasi tashkil etiladi.

Shuningdek, Angren shahrining Lashkarak va Yangiobod hududlarida "turizm qishloqlari", Bekobod tumanida ekologik va ov turizmi, Parkent tumanida "Kumushkon" turizm majmuasi hamda Parkentsoyda oilaviy dam olish maskanlari va mehmon uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Joylashtirish vositalari quvvatini 35,5 ming o'ringa yetkazish ko'zda tutilgan.

Mazkur ishlar hisobidan viloyatda turizm eksportini 600 million dollarga, xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini 16,5 millionga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda viloyatning "og'ir" toifadagi va

"Yangi O'zbekiston qiyofasidagi" tuman, shahar va mahallalaridagi 231 ta loyihaga 956 milliard so'm ajratilgani qayd etildi. Mahallalarda uy-joy, elektr, suv, kanalizatsiya va yo'llarni yaxshilash ishlarni jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Xususan, ichimlik suvi bormagan 39 ta mahalla markazlashgan ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi, yana 81 ta mahalladagi 166,7 kilometr yaroqsiz suv tarmog'i rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, 145 ta mahalladagi 121 ta eskirgan transformator yangilanib, 443,6 kilometr elektr tarmoqlari almashtiriladi.

Yig'ilishda yirik ijtimoiy va innovatsion loyihalar ham ko'rib chiqildi. Jumladan, Yuqori Chirchiq tumanida 400 gektar maydonda qiymati 5 milliard dollar bo'lgan "Tashkent Medical Smart City" xalqaro innovatsion tibbiyot shaharchasini barpo etish rejasini muhokama qilindi. Shu bilan birga, Nurafshon shahrida 35,4 million dollarlik Kelajak texnologiyalari markazini tashkil etish, 100 dan ortiq xorijiy IT kompaniyalarni jalb qilish va xizmatlar eksportini yiliga 20 million dollarga yetkazish, 670 o'rinni ko'p tarmoqli tibbiyot klasteri, ijtimoiy muassasalar markazi, viloyat davlat arxivi binosi kabi loyihalar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, aholi murojaatlari bilan ishlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, "yashil iqtisodiyot" va yoshlarga oid siyosat borasida olib borilayotgan ishlar hamda kelgusi rejalar ko'rib chiqildi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimiz mutasaddilarga viloyat islohotlar shtabi bilan birgalikda mavjud salohiyatdan to'liq foydalanib, ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan har bir dastur va loyihaning aniq natija berishini ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berildi. Toshkent viloyatini kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib, boshqa hududlar uchun namuna sifatida mas'ullar faoliyatining eng ustuvor vazifasi bo'lishi belgilandi.

O'ZA.

## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

2026-yil 8-aprel kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.



Avdon MYKAMMAJIDOV oltin chop.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat hazuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan

yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib berildi.

Yalpi majlisning ikkinchi ish kuni



### Aks sado

## MAMLAKAT SALOHİYATINI YUKSALTIRUVCHI STRATEGIK SOHA

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish hamda seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator muhim vazifalar belgilab berildi.



Ayni chog'da sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslar ham ilgari surildi. Albatta, buni mamlakatimizda sportni rivojlantirish borasida mutlaqo yangi bosqich boshlanayotganidan dalolat beradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi a'zolarining fikr-mulohazalari shu haqda.



### Forum

## PARLAMENTLARARO ALOQALARNI KENGAYTIRISHDA SAMARALI MAYDON

Kecha Oliy Majlis Senatida O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi strategik sheriklikning parlament yo'nalishini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan "O'zbekiston – Fransiya" birinchi parlamentlararo forumi bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlis Senati a'zolari hamda Fransiya Respublikasi Senatining Tashqi ishlar, mudofaa va Yevropa ishlari komissiyasi a'zosi Valeri Boye boshchiligidagi delegatsiya, shuningdek, ikki mamlakatning tegishli qo'mita va idoralari vakillari qatnashdi.

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari

Sodiq Safoyev forumning o'tkazilishi parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishda yangi sahifa ochishi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi. Uning aytishicha, oliy darajada erishilgan kelishuvlar parlamentlar faol hamkorligini talab etadi.



## MILLAT IFTIXORI VA MA'NAVİY QUDRAT MANBAI

Amir Temur – betakror shaxsiyati, ibratli hayot yo'li, bebaho moddiy va ma'naviy merosi bilan xalqimiz faxr-iftixorini yuksaltiruvchi, yuraklarga ma'naviy quvvat bag'ishlovchi beqiyos tarixiy siymo. Shu bois yurtimizda ulug' ajdodimiz tavalludini keng nishonlash ezgu va bardavom an'anaga aylangan.

### Amir Temur tavalludining 690-yilligi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 5-fevralda qabul qilingan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bu yilgi tantanalar alohida shukuh va ko'tarinki ruhda o'tkazilmoqda. Bu esa tarixiy xotiraga ehtirom, buyuk merosga sadoqatning yorqin ifodasidir.

Mustaqillik sharofati bilan Sohibqironning ulug' nomi va muborak xotirasi to'la tiklandi, tarixiy adolat qaror topdi. Milliy davlatchiligimiz ramzi bo'lgan temuriylar saltanatining shonli tarixi bugun ham xalqimiz ruhiyatini yuksaltirib, Uchinchi Renessans

sari dadil qadam tashlayotgan yosh avlod qalbida faxr-iftixor tuyg'ularini mustahkamlamoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda Amir Temur va temuriylar merosi keng qamrovda o'rganilmoqda. Ularning milliy davlatchilik, ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik sohalaridagi ulkan hissasi nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda ham chuqur tadqiq etilmoqda. Bu borada qator ilmiy izlanishlar, badiiy va publitsistik asarlar dunyo yuzini ko'moqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Temurbeklar maktabi"ning faoliyati yoshlarni mardlik, jasorat, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi yuksal fazilatlar ruhida tarbiyalashda

muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, harbiy qismlar va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida "Temur tuzuklari"ning o'qitilishi Sohibqironga munosib vorislarini voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Maxsus sahifada Amir Temurning boy va ko'p qirrali shaxsiyati, uning bashariyat tarixi, Turon tamaddunidagi o'rni, shuningdek, yurtimiz va xorijda buyuk ajdodimiz hamda temuriylar merosini chuqur o'rganish, keng targ'ib etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi materiallar e'tiboringizga havola etiladi.



# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

**1** Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlariga operatorlar hamda to'lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga, antifrod tizimini va biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etishga, shuningdek, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Mazkur qonun to'lov xizmatlari bozorida xavfsizlikni ta'minlashga, moliyaviy firibgarliklarning oldini olishga, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini samarali himoyalashga xizmat qiladi.

Senatorlarning fikricha, qonun raqobat muhitini ta'minlash, litsenziyalash jarayonlarini kamaytirish va banklarning to'lov xizmatlari bozorida faoliyatini rag'batlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shundan keyin "Fuqarolarning mehnat huquqlari kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari demokratik, insonparvarlik va adolat tamoyillari asosida huquqiy tartibga solinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolati haq olish huquqiga ega ekanligi mustahkam qo'yilgan.

Muhokama qilingan qonun milliy qonunchilikni Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalariga muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq Senat tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritilgan.

Qonun Jinoyat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Fuqarolik protsessual, Mehnat kodekslariga hamda "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi va "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi nazarda tutildi. Jumladan, Mehnat kodeksida ish tashlash bu xodimlarning mehnat, ijtimoiy-

iqtsodiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish beruvchi bilan jamoaviy mehnat nizosini hal etish usuli sifatida mehnat majburiyatlarini vaqtincha, ixtiyoriy va birgalikda to'liq yoki qisman bajarishdan tiyilish ekanligi mustahkamlangan. Shuningdek, ish tashlash huquqi kafolatlanmoqda, ish beruvchi va mehnat organlarini xabardor qilish tartib-taomillari va boshqa huquq hamda majburiyatlar belgilanmoqda.

Senatorlar ushbu qonunning hayotga tatbiq etilishi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga, ish tashlash jarayonini qonuniy asosda tartibga solgan holda jamoat xavfsizligi va ijtimoiy tartibni ta'minlashga, O'zbekistonning inson huquqlariga rioya qiluvchi davlat sifatidagi imijini mustahkamlashga, xalqaro tashkilotlar doirasidagi nufuzini oshirishga xizmat qilishini, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun keng yo'l ochib berishini ta'kidladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Senatning yalpi majlisida sug'urta xizmatlari bozorini va elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish, raqamli xizmatlar orqali to'lovlarni amalga oshirishni kengaytirish va to'lov hujjatlariga sifatli hamda xavfsiz ishlash berish bilan bog'liq moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, sug'urta sohasiga oid qonun hujjatlarining qabul qilinishi mazkur sohada qoidalarning bir xil qo'llanilishini ta'minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlaridagi me'yorlarni muvofiqlashtirish zarurligini keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, elektron tijorat sohasi subyektlarining faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada tartibga solishni kuchaytirish, fuqarolar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida samarali davlat nazoratini ta'minlash zarurati ortib bormoqda.

Senatorlar qayd etganidek, ushbu qonun bilan amaldagi qonunchilikka sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida vakolatli davlat organining nazorat vazifalarini kengaytirishni, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonun bilan elektron tijorat operatorlari faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida vakolatli davlat organi xabardor qilish tartibi joriy etilib, mazkur faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida vakolatli davlat organi xabardor qilmaslik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Senatorlar o'z chiqishlarida

ta'kidlaganidek, qonun bilan sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish orqali sug'urta bozorining professional ishtirokchilari va sug'urta xizmatlari iste'molchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, elektron tijorat sohasi takomillashtiriladi, operatorlar faoliyati ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ta'minlanadi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shuningdek, 14-yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Jordaniya Hoshimiyalar Podshohligi Hukumati o'rtasida ushlab berish to'g'risidagi Bitimni (Samarqand, 2025-yil 26-avgust) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur Bitim qoidalariga muvofiq tomonlar jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida ushlab berish masalalarida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Hujjatda ushlab berish uchun asos bo'ladigan jinoyatlar doirasi, rad etish asoslari, markaziy vakolatli organlar, dastlabki qamoqqa olish hamda ushlab berilgan shaxslarga nisbatan maxsus qoidalar aniq belgilab qo'yilgan.

Senatorlarning ta'kidlashicha, mazkur qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorligini mustahkamlaydi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Senatning yalpi majlisida, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, ombudsman instituti 2025-yilda yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini olib borish, sohaga oid milliy qonunchilik hamda milliy preventiv mexanizmi takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda bir qator ishlarni amalga oshirgan.

2025-yilda ombudsman nomiga 26 372 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, bu 2024-yildagiga nisbatan 12,6 foiz ko'pdir. Hududlar kesimida eng ko'p murojaatlar Qashqadaryo (4 159 ta), Surxondaryo (2 769 ta) viloyatlari va Toshkent shahri (3 599 ta) hissasiga to'g'ri kelgan. Eng kam murojaatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (681 ta) va Sirdaryo viloyatidan (696 ta) tushgan.

Senatning 2025-yil 18-martdagi tegishli qarori ijrosi yuzasidan eng ko'p murojaat yuborilgan hududlar – Qashqadaryo viloyatining Koton hamda Surxondaryo viloyatining Denov tumanlariga tashrif buyurilib, 20 dan ortiq mahallada fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazildi. Ularda murojaatlarda ko'tarilgan masalalar mas'ul

idoralar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirokida muhokama qilindi. Natijada murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasiga kiritilgan.

Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'rovonlik holatlariga oid ombudsman yuborilayotgan murojaatlar sonining ortgani sababli ayollar huquqlarini ta'minlash bo'sadagi qonun hujjatlarining amaldagi ijrosi samaradorligini o'rganish hamda parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida ombudsman tashabbusi bilan 2025-yilda "Tenglik va hurmat" platformasi ishga tushirildi. Zo'rovonlikka uchragan 150 nafardan ortiq ayollar bilan reabilitatsiya markazlarida jamoaviy va yakka tartibda suhbatlar o'tkazilib, ularga yordam ko'rsatildi. O'rganish yakunlariga ko'ra ombudsman takliflari ishlab chiqilib, Oliy Majlisning palatalariga kiritilgan.

Senatning 2025-yil 18-martdagi tegishli qarori ijrosi yuzasidan ombudsman murojaatlarni tizimli tahlil qilish orqali qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni aniqlashga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, 2025-yilda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni yanada mustahkamlashga qaratilgan 3 ta qonun loyihasi ishlab chiqildi. Qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan 1 ta qonunchilik taklifi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilindi. Shuningdek, ombudsman tavsiyasi asosida davlat organlari tomonidan 11 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi.

Murojaatlarni o'rganish va monitoring tashriflari natijasida inson huquqlari sohasidagi qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan 194 ta ta'sir chorasi kiritilib, ularning 82 foizi ijobiy hal etildi.

2025-yilda murojaatlar asosida fuqarolar foydasiga jami 11 milliard 82 million so'm mablag' undirildi. Jumladan, 3 milliard 936 million so'm uy-joy kompensatsiyalari, 2 milliard 715 million so'm ish haqi va mehnat munosabatlari o'ldirilgan to'lovlar (shundan 409,3 million so'm mahkumlarining ish haqi), 3 milliard 361 million so'm qarzdorlik va zararlarini qoplash, 604 million so'mdan ortiq aliment to'lovlari undirilishi ta'minlandi.

Inson huquqlarini buzgan 118 nafar mas'ul shaxs intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortildi. Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 954 marotaba monitoring tashrifi amalga oshirildi (2024-yilda 902 ta). 11 mingdan ortiq mahkum va mahbuslar bilan jamoaviy, 5 487 nafar shaxs bilan xoli tarzda suhbatlar o'tkazildi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan kiritilgan tadqiqotlar asosida bir qator muassasalarda shart-sharoitlar yaxshilandi, 8,5 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi, Toshkent viloyatining Chinoz, Qibray va Yuqori

Chirchiq tumanlaridagi vaqtincha saqlash hibsxonalari tugatildi.

Xalqaro yo'nalishda ombudsman inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning Osiyo – Tinch okeani forumiga a'zo bo'ldi, Rossiya Federatsiyasining inson huquqlari bo'yicha vakili bilan 2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" imzolandi, Daniya ombudsmani hamda Germaniyaning Fridrix Ebert jamg'armasi bilan hamkorlik memorandumlari tuzildi.

Yalpi majlisda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim kamchilik va muammolar ham kuzatilayotgani ta'kidlab o'tildi.

Xususan, 2025-yilda ombudsman kelib tushgan murojaatlar soni (26 372 ta) 2024-yildagiga nisbatan 2 950 taga yoki 12,6 foizga ortgan.

2025-yilda ombudsman yuborilgan murojaatlar kesimiga e'tibor berilsa, 32 foizini iqtisodiy huquq yo'nalishidagi murojaatlar tashkil etishi va bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 26 foiz oshgani ma'lum bo'ladi. Ushbu yo'nalishdagi murojaatlarning aksariyati sud qarorlaridan norozilik, xususiy mulk kafolatlari hamda fuqarolarning mehnat huquqlari va boshqa masalalarga taalluqli bo'lgan.

2025-yilda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik, oilada ayolning tahqirlanishi hamda shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashish masalalari bo'yicha 585 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, 2024-yildagiga (294 ta) nisbatan 291 taga yoki 99 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich mazkur yo'nalishdagi muammolarning dolzarbli saqlanib qolayotganini hamda profilaktika va himoya mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ombudsmanning mintaqaviy vakillariga ushbu organ Devonidan hamda fuqarolardan to'g'ridan to'g'ri 7 010 ta murojaat kelib tushgan (2024-yilda 3 857 ta). Bu qabul qilingan jami murojaatlarning 26,6 foizini tashkil etgan.

Muhokamalar davomida qonunchilikka belgilangan ta'sir choralaridan samarali foydalanish, murojaatlarni eng ko'p kelib tushgan hududlar kesimida o'rganish, mintaqaviy vakillarning qiyonoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muolima hamda jazo turlarini qo'llashning oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tegishli vazifalar belgilandi.

Ushbu masalani ko'rib chiqish yakuni bo'yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida F. F. Eshmatovani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) etib saylash masalasi ko'rib chiqildi.

Senatning tegishli qaroriga asosan Eshmatova Feruza Farxodovna O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) etib saylandi.

Yuqori palataning 14-yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan Umid Rustamovich Shodiyevni O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Arab Amirliklaridagi Favqulodda va muxtor elchisi lavozimiga tayinlash masalasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, ushbu masala O'zbekistonning Birlashgan Arab Amirliklari bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlari yanada mustahkamlash hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion va turizm sohasida amaliy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Senatorlar ushbu nomzod tashqi siyosat sohasida chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga hamda mamlakatimiz milliy manfaatlarini xalqaro maydonda munosib va samarali tarzda ilgari surish salohiyatiga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Muhokama natijalariga ko'ra Umid Rustamovich Shodiyev O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Arab Amirliklaridagi Favqulodda va muxtor elchisi lavozimiga tayinlandi.

Senatning 14-yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis Senatining mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qaroriga muvofiq Akram Shukurov sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari – sudlov hay'ati raisi etib saylandi.

Shuningdek, Baxodir Abdullayev, Sobirjon Ergashev, Begzod Xaydarov, Nozimjon Jurayev o'n yillik muddatga hamda Akmal Murodov va Odil Normahmatov sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimiga saylandi.

Boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan Dilshod Rajabov, Kamoliddin Tollibayev, Anvar Elmurodov, Elbekjon Turgunboyev O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimidan ozod etildi.

Parlament yuqori palatasi a'zolari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlarini tasdiqlash masalasi ham ko'rib chiqildi va Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 17 ta masala, shu jumladan, 11 ta qonun ko'rib chiqildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi yakunlandi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.**

## ISTE'MOLCHILAR MANFAATI – USTUVOR VAZIFA

*Kecha Oliy Majlis Senatining o'n to'rtinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi. Kun tartibidagi masalalar senatorlar va mutaxassislarining qizg'in munozaralariga sabab bo'ldi. Xususan, to'lov tizimlarini tartibga solish hamda sug'urta bozorida amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'zgarishlar borasida senatorlar o'z mulohazalarini bildirdi.*

### Munosabat

#### Renovatsiya – yangi imkoniyatlar demak

**Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:**

– "Shaharsozlik renovatsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni aholini qulay va arzon uy-joy bilan ta'minlash hamda ularga kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash borasidagi masalalar yechimiga qaratilgan.



"Shaharsozlik renovatsiyasi" deganda hududni me'moriy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan yaxshilash, ushbu hududda joylashgan bino va inshootlarni yashash uchun yaroqli, qulay hamda energotejamkor holatga keltirish, jumladan, ulardan samarali foydalanishga hamda yer uchastkalarini qayta rejalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Bugungi kunda yurtimizda 42 mingdan ortiq ko'p kvartirali uylarning 31 mingga yaqini 1991-yilgacha qurilgan. Ularning renovatsiyasi bo'yicha yagona qonunchilik mavjud emasligi ayrim muammolarga sabab bo'lmoqda.

Qonunning qabul qilinishi natijasida ma'nan eskirgan, seysmik zaif uy-joylarning bosqichma-bosqich renovatsiyasi bilan shug'ullanishning huquqiy asosi yaratilib, kelgusida yangi uy-joylarni ko'proq renovatsiya hisobiga qurish imkoni paydo bo'ladi. Bunda respublikadagi 2-3 qavatli qariyb 255 ming xonadonli 17 mingta uy o'rniga, ijtimoiy obyektlar va yashil maydonlarga ega zamonaviy 7 – 9 qavatli jami 900 ming (3,5-marta ko'p) xonadonli uylar qurish mumkin. Qolaversa, hozirgi qurilish tendensiyasidan qariyb 20 ming gektar yerni tejash

va 4,5 mln. aholini uy-joy bilan ta'minlash imkoniyati yuzdaga keladi. Bundan tashqari, renovatsiya loyihasida davlat, investor va mulkdorlarning ulushdor sifatida ishtirok etish mexanizmi joriy qilinmoqda. Bu jarayonda davlat tasarrufidagi mulk yoki yer uchastkasining baholangan qiymati miqdorida renovatsiya jamg'armasi orqali loyihaga ulushdor sifatida kirish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Renovatsiyani qo'llab-quvvatlash respublika va hududiy jamg'armalar orqali chekka hududlardagi eskirgan uy-joylarni renovatsiya qilish mexanizmi yaratiladi hamda renovatsiya loyihasining amalga oshirilishi soddalashtirilib, tashabbuskor tomonidan mulkdorlarga kompensatsiya berish shakllari va soliq imtiyozlari belgilanadi.

Renovatsiya natijasida aholi eskirgan va avariya holatidagi uy-joylar o'rniga zamonaviy, energotejamkor uylarga ega bo'lib, shahar muhiti yanada yaxshilanadi, aholi zich manzillarda bir hudud doirasida ko'proq xonadon bilan ta'minlanish imkoni yaratiladi. Misol uchun, 2-3 qavatli 17 ming uy o'rniga 7 – 9 qavatli yangi uylar qurish orqali qamrov 3 barobargacha oshiriladi.

Ixtiyoriylik, xususiy mulk daxlsizligi, ochiqlik-shaffoqlik tamoyillari joriy etilib, aholining rozilgisiz buzish-qurish ishlari amalga oshirilmaydi. Shuningdek, hududning o'zidan yoki boshqa joydan uy-joy, pul beriladi. Berilgan uy maydoni eskisidan kam bo'lmaydi va vaqtincha ijara xarajatlari qoplanib, qo'shimcha 12 foiz bir martalik tovon to'lanadi.

Qonunning qabul qilinishi bilan tadbirkorlar uchun ham qator imkoniyat va qulayliklar yuzdaga keladi. Xususan, loyihalarning bosqichlari, kelishuv tartibi, davlat hamda jamoatchilik nazorati belgilab qo'yiladi, respublika va hududiy jamg'armalar orqali ulushdorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etiladi.

Loyiha tasdiqlangandan so'ng har bir mulkdor bilan alohida uch tomonlama notarial kelishuv tuziladi; 100 foiz kelishuvsiz buzish-qurish

boshlanmaydi. Shaharsozlik renovatsiyasi jarayoni hududni me'moriy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan yaxshilashga qaratilgan.

#### Raqobat muhitini ta'minlash imkoniyati

**Abdusaid KO'CHIMOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi:**

– Oxirgi paytlarda raqamli munosabatlarning rivojlanishi bank kartalaridan o'g'irlik va firibgarlik holatlari ko'payishiga sabab bo'layotgan edi. Bunday salbiy holatlarga barham berish maqsadida tijorat banklari, to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun antifrod hamda biometrik identifikatsiya tizimlari va boshqa himoya mexanizmlarini tashkil etish zarurati tug'ilmoqda.



Shu bois "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun to'lov xizmatlari bozorini tartibga solish, moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini buzilishini kamaytirishga erishish maqsadida ishlab chiqildi.

U bilan O'zbekiston Respublikasining bir qancha qonunlariga operatorlar hamda to'lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga, antifrod tizimi va biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etishga, shuningdek, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Qonunda to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotining ustav fondi (ustav kapitaliga qo'yiladigan talablar ham belgilanayпти. Xususan, ustav fondi (ustav kapitali)ni shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan,

majburiyat yuklatilgan boshqa manbalardan, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olinganligi borasida shubha paydo bo'lgan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy qilib qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, banklar tomonidan to'lov tizimi operatorlari faoliyatini boshlaganligi haqida xabardor etish va banklar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'lov tizimlari operatorlarining reestrindan chiqarish tartibi ham aniqlashtirilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi bilan to'lov xizmatlari bozorida kuzatilayotgan moliyaviy firibgarliklar, majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi bilan bog'liq tavakkalchiliklarning oldi olinishiga va to'lov xizmatlari iste'molchilari huquqlari buzilishining kamayishiga erishiladi hamda raqobat muhitini ta'minlash, litsenziyalash jarayonlarini kamaytirish va banklarning to'lov xizmatlari bozorida faoliyatini rag'batlantirishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

#### Sug'urta sohasida qonunchilik bir xil bo'ladi

**Shavkat SHARIPOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi:**



– Bugungi kunda sug'urtalovchi va sug'urta brokerlari faoliyatini to'liq nazorat qilishning imkoniyati mavjud emasligi ko'plab iste'molchilarning noroziligiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, elektron tijorat sohasi subyektlarining faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada tartibga solishni kuchaytirish, fuqarolar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadida davlat tomonidan samarali nazoratni ta'minlash zaruriyati ham ortib bormoqda.

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ushbu yo'nalishdagi islohotlarning davom ettirilishi bilan bog'liq.

Qonunning asosiy maqsadi sug'urta qildiruvchilar,

sug'urtalangan shaxs, sug'urta xizmatlari va iste'molchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalash ta'minlash uchun vakolatli davlat organining nazorat vazifalarini kengaytirish, sug'urta va bank siriga oid ma'lumotlardan foydalanishga erishish, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish, sug'urtalovchi foydasining cheklanishi mumkin

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI KENGAYTIRISHDA SAMARALI MAYDON



Fransiya Senati a'zosi Valeri Boye, o'z navbatida, ikki tomonlama hamkorlikning yuqori darajasini urg'ulab, uning mamlakati O'zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratishini va forumni parlamentlararo muloqotni kengaytirish uchun samarali maydon sifatida ko'rishini ta'kidladi.

Ishtirokchilar "O'zbekiston - Fransiya" birinchi parlamentlararo forumi siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda fikr almashish va kelishilgan yondashuvlarni ilgari surish uchun muhim platformaga aylanganini ta'kidlashdi.

Forum doirasida siyosiy muloqot, iqtisodiy sheriklik va madaniy-gumanitar hamkorlik masalalariga bag'ishlangan uchta tematik sessiya bo'lib o'tdi.

Birinchi sessiyada parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, jumladan, parlament diplomatiyasini rivojlantirish va "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" formatidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish istiqbollari muhokama qilindi.

Ikkinchi sessiya investitsiyaviy va savdo hamkorligini kengaytirish masalalariga bag'ishlandi. Ikki tomonlama tovar ayirboshlash sezilarli darajada o'sib, 2025-yilda 1,4 mlrd. dollarga yetgani, shuningdek, O'zbekistonda Fransiyaning yetakchi kompaniyalari faollashgani qayd etildi.

Uchinchi sessiya davomida ishtirokchilar madaniy-gumanitar hamkorlik istiqbollari, jumladan, ta'lim dasturlarini rivojlantirish va Toshkent shahrida O'zbekiston - Fransiya universitetiga asos solish tashabbusini ko'rib chiqdi.

Tadbir yakunida tomonlar hamkorlikni yanada kengaytirish, parlamentlar o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish va asosiy yo'nalishlar bo'yicha qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

MAMLAKAT SALOHİYATINI YUKSALTIRUVCHI STRATEGIK SOHA



Shuhrat YOQUBOV, qo'mita a'zosi:

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari tomonidan sportning mohiyatiga berilgan ta'rif alohida e'tiborga loyiq. Ya'ni sport nafaqat musobaqa, balki sog'lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon etadigan katta kuch ekanini ta'kidlandi.

Darhaqiqat, sport nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilaydi, balki insonni intizomli va Vatanga muhabbatli qilib tarbiyalaydi. Shuningdek, xalqaro musobaqalardagi g'alabalar mamlakatning nufuzini oshiradi. Bu yondashuv sportni ommalashtirish va yoshlarni jismoniy faoliyatga jalb qilish orqali yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. Qolaversa, sohadagi barcha islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi konseptual asos hisoblanadi.

Yaqinda Prezidentimiz tomonidan imzolandi, kuchga kirgan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni tayyorlashda biz, deputatlar ommaviy sportni rivojlantirish, aholini, ayniqsa, yoshlar va ayollarni sportga targ'ib qilish, sport infratuzilmasini qurish va bu jarayonga xususiy sektorni keng jalb etish, sportchi va murabbiylarning huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladigan yangi normalarni kiritishni ilgari surgan edik. Yig'ilishda sohani rivojlantirishga oid belgilangan ustuvor vazifalar ushbu qonunning amalda samarali qo'llanilishiga hamda bu orqali aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalash va mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishga xizmat qiladi.

Sayyora IMOMOVA, qo'mita a'zosi:

Sport sohasiga ilm-fan va innovatsiyalarni keng joriy etish muhim masalalardan sanaladi. Sun'iy intellekt asosida sportchilar va murabbiylar faoliyatini tahlil qilish, mashg'ulot jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish kabi tashabbuslar sohaning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan har bir sohaga ilm bilan yondashish zarurligi ta'kidlangani kabi sportda ham buni qo'llash, natijalarni rag'batlantirishning aniq mexanizmlari ta'kid etilgani alohida e'tiborga molik. Xususan, olimlarning sportga oid ilmiy ishlari natija berib, sportchilarning yutuqlari va xalqaro musobaqalardagi medallari ko'paysa, bunday olimlar 100 million so'mdan mukofotlanishi aytiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilgari surilgan islohotlar har bir fuqaroning kundalik hayotiga daxldor bo'lib, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish orqali jamiyat taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi.

Dilmurod ARTIQOV, qo'mita a'zosi:

Ta'kidlash lozimki, sport infratuzilmasi, zamonaviy sport obyektlari va musobaqalar uyushtirish uchun moliyaviy resurslar talab etiladi. Bu borada xususiy sektorning investitsiya va homiyli sport sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi omiga aylanadi.

Shu bois mamlakatimizdagi tadbirkorlar salohiyatidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ular orasida sportga qiziqish bildirib, homiylik qilishga tayyor shaxslar yildan-yilga ko'paymoqda. Davlat va tadbirkorlar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilsa, sport infratuzilmasi yanada rivojlanadi, yoshlar uchun zamonaviy obyektlar barpo etiladi.

Yurtimizda sportga homiylik qiluvchi tadbirkorlar uchun qator quvayliklar yaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbusga asosan sport tadbirlari vaqtida xizmatlar, ko'ngilochar tadbirlar va transportni muvofiqlashtirish bilan birga raqib jamoa muxlislari uchun arzon tur paketlari taqdim etiladi, klublar daromadini 2-3 barobar oshirish, muxlislar uchun dam

olishni mazmunli qilish va tadbirkorlar uchun qo'shimcha daromad imkoniyati yaratiladi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashda sport infratuzilmasining sifatli rivojlanishi muhim. Davlat-xususiy sheriklik orqali yangi sport inshootlari qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va yo'l-dosh xizmatlarini takomillashtirish orqali mamlakatimizda sport muhiti yanada rivojlanadi, yoshlar va aholi uchun qulaylik, xavfsizlik ta'minlanadi.

Madina BARATOVA, qo'mita a'zosi:

Yig'ilishda erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolish mumkin emasligi, sohada hali o'z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjudligi ta'kidlandi. Xususan, mavjud infratuzilma va imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgani, ayrim hududlarda sport maktablari va federatsiyalar faoliyati samaradorligi past ekanini tanqid qilindi. Bu holat, avvalo, boshqaruv va tashkil etish masalalariga yong'ir yondashuvni talab qiladi. Masalan, ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyatini natijaga bog'lash, murabbiylar mehnatini munosib rag'batlantirish hamda ularning mas'uliyatini oshirish kabi chora-tadbirlar joriy etilayotgani ayni muddao bo'ldi.

Alohida ta'kidlash joizki, ommaviy sportni rivojlantirish borasida "mahalla - maktab - sport muassasi - federatsiya" zanjiri asosida yangi tizim joriy etilayotgani tizimli yondashuvning yorqin namunasidir. Bu orqali bolalarni kichik yoshdan sportga jalb qilish, iqtidorlilarni saralab olish va ularni yuqori darajada tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, ommaviy sport natijadorligini faqat qamrov bilan emas, balki aholi salomatligi ko'rsatkichlari orqali baholash tizimi joriy etilayotgani muhim yangilik. Bu esa sportni formal emas, balki haqiqiy ijtimoiy ahamiyatga ega mexanizmga aylantiradi.

"Xalq so'zi".

Tanlov

«AQCHAKO'L ILHOMLARI» - HAQIQIY IJOD BAYRAMI

Ellikqal'a tumanida 7-8-aprel kunlari bo'lib o'tgan "Aqchako'l ilhomlari" respublika ijodiy tanlovi yurtimiz madaniy hayotidagi muhim voqeilik sifatida esda qoldi. Tanlovda Toshkent shahri, barcha viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining turli chekkalaridan kelgan bir guruh yosh iqtidor egalari qatnashdi. Ular Vatanga muhabbat, yurtimiz tabiati, boy tarixi hamda milliy qadriyatlarimizni she'riy, nasriy va tasviriy san'at orqali badiiy ifoda etdi.

Dastlabki kun tanlovning ochilish marosimi bilan boshlanib, taniqli shoir va yozuvchilar ishtirokida uchrashuvlar, adabiy muloqotlar o'tkazildi. Ellikqal'a tumanidagi san'at saroyida O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov byusti tantanali ochildi. Muzei va madaniy maskanlarga tashriflar ham yosh ijodkorlar uchun maroqli kechdi.

Ikkinchi kun esa tanlovning eng hayajonli pallasi g'oliblarni aniqlash va taqdirlash marosimi bilan yodda qoldi. Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, "Aqchako'l ilhomlari" respublika ijodiy tanlovida farg'onalik Davlatjon Karimov "Eng yaxshi she'riy asar", navoiylik adib Umid Xudoyqulov "Eng yaxshi nasriy asar", buxorolik Yunus Farmonov "Eng yaxshi tasviriy san'at asari" yo'nalishlarida diplom bilan taqdirlandi.

Marosimda so'zga chiqqanlar yoshlar ijodiga yuqori baho berib, kelgusida yanada yuksak marralarni zabt etishiga ishonch bildirdi.

Ishtirokchilarga diplom, statuetka, esdalik sovg'alari, kitoblar jamlamasi topshirildi. Tadbir davomida kuy-qo'shiq va raqslar, badiiy chiqishlar marosimga



bayramona kayfiyat bag'ishladi. G'oliblar va ishtirokchilarning chehrasidagi quvonch hamda iftixor tuyg'ulari esa "Aqchako'l ilhomlari"ning haqiqiy ijod bayramiga aylanganini yana bir bor namoyon qildi.

Shu tariqa ikki kun davom etgan mazkur tanlov yoshlar uchun katta ijodiy maktab, tajriba va ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. "Aqchako'l ilhomlari" nafaqat yangi nomlarni kashf etdi, balki yurtimizda adabiyot va san'atga yuksak e'tiborning yana bir yorqin ifodasiga aylandi, desak, ayni haqiqat.

G'ayrat OTAJONOV ("Xalq so'zi").

Yuqumli kasalliklarning gurtimizga kirib kelish xavfi bormi?

Jahon hayvonlar sog'lig'i tashkiloti (JHST)ning ma'lumotiga ko'ra, keyingi bir yarim yil ichida dunyoning o'nlab davlatlarida kuydirgi, mayda shoxli mollar o'lati, nodulyar dermatit, quturish, oqsil, cho'chqalar o'lati, qo'ylar chechagi, patogenli parranda grippi va boshqa o'ta xavfli kasalliklar aniqlangan. O'zbekiston bilan chorvachilik yo'nalishida savdo aloqalari o'rnatgan Afg'oniston, Xitoy, Ozarbayjon, Hindiston, Turkiya, Germaniya, Vengriya, Slovakiya, Mo'g'uliston singari mamlakatlarda ham epizootik holat barqaror emas.

Dolzarb mavzu

Ana shunday bir paytda Rossiya va yon qo'shniimiz Qozog'istonning ayrim joylarida boshqaruv maktabi kasalliklarga oqibatida nobud bo'layotgani haqida xabarlar tarqalmoqda, ofatga qarshi keskin choralar ko'rilayotgan.

Xo'sh, bundan yurtimiz aholisining tashvishiga tushishga asos bormi? Bu yaqin va olis davlatlarda kuzatilayotgan kasalliklar yurtimizga ham kirib kelishi mumkinmi?

Shu kabi savollar bilan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi mas'ullariga murojaat qilдик.

Xavotirga o'rin yo'q, respublikamiz bo'yicha hayvonlarda uchraydigan turli xavfli kasalliklarga qarshi emlash ishlariga 5 ming nafardan ziyod mutaxassislar jalb etilgan, - deydi qo'mitaning Hayvonlar salomatligini himoya qilish boshqarmasi boshlig'i Jahongir Tursagatov. - Emlamalalar xarizasi va kerakli asbob-uskunalar yetarli. Veterinar vrachlar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan mahalla va ovuladgi har bir xonadonda bo'lib, chorva mollari va uy hayvonlarini yana bir karra ko'zdan kechirib chiqmoqda. Molbozorlar, kushxonalar va yirik chorvachilik fermalari, yaylovlardagi holatlar ham veterinarchilar nazorati ostida. Profilaktik emlash tadbirlarini uyushtirish bilan o'tkazish maqsadida yurtimiz bo'yicha jami 1 200 ta ishchi guruh (otryad) tashkil etilgan va ular mahalla faollari, oqsqoqlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib bormoqda.

Issiq jonning isitmasi bo'lishi tayin, ayniqsa, ko'klam mahali. Mutaxassislarimiz ana shu jihatchi e'tibordan qochirmasdan kasallikning oldini olish va tezkor davolash payidan bo'lishayotir.

Chegara hududlaridagi holat ham qat'iy nazoratimizda. Hukumatimiz topshirig'iga ko'ra, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston bilan jami 6 221 km. uzunlikdagi veterinariya-sanitariya himoya zonalarini tashkil etilgan. Bu, o'z navbatida, 82 ta tumanidagi 8 mln. boshdan ortiq chorva mollari va 14 mln. boshga yaqin parrandalar doimiy veterinariya nazoratidan o'tkazilmoqda, degandir. Bojxona xizmati xodimlari bilan bag'anti ishlayotgan veterinarchilarimiz shu yilning o'zidayog' chegaraga o'tkazish punktlari orqali yurtimizga kirib kelgan 250 mingdan ortiq avtotransport vositalarini dizinfektsiya qilishdi. Bu jarayon ayni chog'da ham uzluksiz davom etmoqda. Maqsad - ko'zga ko'rinmas xavfni yurtimizga yaqin yo'latmaslik.

Yana raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsa, joriy yilning yanvar - mart oylarida chorva mollari 1,8 mln. boshi kuydirgiga, 700 ming boshi oqsilga, 100

ming boshdan ortig'i nodulyar dermatitga qarshi emlab chiqildi. 132 ming bosh it va mushuklarda quturish kasalligiga qarshi profilaktik emlash hamda chorva mollari saqlanadigan binolarda dezinfektsiya, dezinfeksiya va deratizatsiya tadbirlari amalga oshirildi. Muhimi, birorta hayvon nazoratdan chetda qolmasligi uchun barcha choralar ko'rilmoqda hamda bu sa'y-harakatlar aholi va chorvadorlar ixtiyorida jonivorlarning kasallik tashuvchiga aylanib qolmasdan sog'lom bo'lishi, ko'payishi va nasli yanada yaxshilanishiga turtki bermoqda.

Bugun o'z kasbini puxta egallagan veterinarchilar ko'p, ularning beminnat xizmatidan aholi mamnun. Ammo ba'zan no'noq va dangasa, malakasi yetarli bo'lmagan veterinariya xodimlari ham uchrab turadi. Ularning aybi bilan odamlar moli qanday xastalikka chalinganini bilmay o'tiqcha, ehtirosiga beriladi. Oqibatda internetda turli shovshuvli chiqishlar paydo bo'lmoqda. Biz bunday murojaatlarni ham tezkorlik bilan o'rgangan holda muammoni bartaraf etishga intilyapmiz.

Bundan tashqari, tizimda malaka oshirish ham yo'lga qo'yilgan. O'tgan yili ming nafarga yaqin veterinarchilar qo'mita huzuridagi Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish institutida bilim hamda ko'nikmalarini oshirdi. Joriy yilda bu raqam qariyb ikki karra oshadi. Bu ham davr talabidir. Qolaversa, hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni davolashning yangi usullari yaratilmoqda, dori-darmonlar, zamonaviy tashxislash borasida ham o'zgarishlar beqiyos. Ularni bilimgan veterinarchilar, albatta, muammoga duch keladi, ish jarayonida qiyinaladi. Shu bois malaka oshirish, o'qish-rganish juda kerak.

Yurtimizda epizootik barqarorlikni yanada ishonchli ta'minlash maqsadida sohaning yuzdan ortiq olimlari, professor-o'qituvchilar amaliy yordam ko'rsatish uchun hududlarga mas'ul qilindi. Ular ayni chog'da Samarqand davlat veterinariya meditsinasini, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining yuqori bosqichida saboq olayotgan to'qqiz yuz nafardan ziyod shogirdlarni o'quv-amaliyot rejasiga ko'ra epizootik tadbirlarda faol ishtirok etmoqda.

Mutaxassislarimiz yuqumli kasalliklarning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish, epizootik osovishlikni ta'minlash uchun tunu kun astoydil mehnat qilmoqda. Demak, vahimaga borish va ortiqcha xavotirlanishga aslo o'rin yo'q.

Abdunabi ALIQULOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

O'zLiDeP fraksiyasi:

SAYLOVCHILAR BILAN MULOQOTLAR YANADA FAOLLASHADI

Davlatimiz rahbarining parlament palatalarida so'zlagan nutqlari, Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar bugungi kunda siyosiy partiyalar fraksiyalari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtda O'zLiDeP fraksiyasi faoliyati, deputatlarimizning ishan sa'y-harakatlari hamda qonun ijodkorligi uchun o'ziga xos dastur bo'lib xizmat qilyapti. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan g'oyalari va tashabbuslar fraksiyamiz faoliyatini yanada faollashtirib, yangi maqsadlarga keng yo'l ochmoqda.

Tahlil

Fraksiyamiz 2026-yilning birinchi choragida ham o'z faoliyatini ana shunday yondashuv asosida izchil olib bordi. Va bunda qonun ijodkorligi alohida ustuvor ahamiyat kasb etib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi hujjatlar ishlab chiqishda belgilangan norma va qoidalarga qat'iy rioya etilmoqda.

O'tgan davrda fraksiyamiz tashabbusi bilan 1 ta mustaqil va 2 ta hamkorlikdagi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasiga kiritildi. Xususan, bir guruh deputatlarimiz tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilib, qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, axborot makonida odob-axloq me'yorlariga rioya etilishini kuchaytirish, fuqarolar sha'ni va qadriyatini himoyasiga xizmat qiladi.

Shuningdek, hujjatlar ishlab chiqishda tadbirkorlar va ishbilarmonlarning huquq va manfaatlarini himoya etish, faoliyat yuritishlari uchun qulay sharoit yaratish va ortiqcha to'siqlarni bartaraf qilishga alohida ahamiyat berildi. Qolaversa, iqtisodiy va ma'muriy sudlarga murojaat etish tartibini soddalashtirish, sug'urta bozoriga ishonchini oshirish va tadbirkorlik subyektlari uchun tartibga solish yukini kamaytirishga qaratilgan muhim qonunlar qabul qilindi.

Bularning barchasi, avvalo, inson qadriini yuksaltirishga yo'naltirilgan, odamlarimizning mushkulini osonlashtirib, jamiyatda adolatni ta'minlamog'da. Bu esa davlatimiz rahbarining qonun qabul qilindimi, u, albatta, ishlashi kerak va odamlar hayotida sezilarli o'zgarish bo'lishi lozim, degan fikrlari hayotda o'z ifodasini topayotganidan dalolat beradi.

Fraksiya faoliyatida parlament nazorati ham muhim o'rin tutdi. Dolzarb masalalar yuzasidan mansabdor shaxslarning axborotlarini eshitish, ular faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish bo'yicha qator ishlar bajarildi. Jumladan, fraksiyamiz tashabbusi bilan bo'lib o'tgan "Hukumat soati"da mamlakatimizda investitsiya faoliyatini rivojlantirish holati, investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda hududlarda sanoat loyihalarining ijrosi muhokama qilindi.

Saylovchilarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida joylarda o'tkazilgan nazorat-tahlil tadbirlari, saylov okruglaridagi o'rganishlar davomida aniqlangan muammolarni bartaraf qilish maqsadida davlat boshqaruv organi rahbarlariga 10 ta deputat so'rovi yuborildi. Natijada ularni tezkor hal etish, mas'ul idoralari faoliyatiga aniqlik kiritish hamda ijro intizomini kuchaytirishga erishildi. Prezidentimiz raisligida o'tgan

yig'ilishlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishchi guruhlar shakllantirilib, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Buxoro viloyatlari hamda Toshkent shahrida keng ko'lami o'rganishlar amalga oshirildi. Ushbu uchrashuvlarda 1 400 dan ortiq ishtirokchilar qamrab olindi. O'rganishlar davomida sanoat korxonalarini, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish obyektlari, xizmat ko'rsatish sohasi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyati bilan tanishildi.

Ochiq muloqotlar jarayonida tadbirkor, fermer, xizmat ko'rsatish sohasi vakillari, yoshlar hamda mutasaddi rahbarlar tomonidan qator takliflar ilgari surildi. Infratuzilma, moliyaviy resurslar, eksport jarayonlaridagi to'siqlar, kadrlar tayyorlash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi. E'tiborli jihati shundaki, bu jarayonlarga partiyaning hududiy tashkilotlari va mahalliy Kengashlardagi guruhlar ham faol jalb etildi. Ular bilan hamkorlikda joylardagi mavjud holat har tomonlama o'rganilib, elektoratni o'ylantirayotgan muammolar aniqlandi va yechim topish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Fraksiyamiz faoliyatida partiyaning Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar ijrosi ham muhim o'rin egalladi. Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, "soliq - mahalla taraqqiyoti garovi" tamoyili asosida minglab mahallalarda targ'ibot ishlari olib borildi. Fermer va dehqonlar bilan yuzlab uchrashuvlar uyushtirilib, muammolari o'rganilib, amaliy yordam berildi. "Tashabbusli byudjet" doirasida esa aholi manfaatlariga daxldor 60 ta loyiha

tanlab olinib, amalga oshirish choralari ko'rilmoqda.

Prezidentimizning fevral oyida yoshlar bilan uchrashuvida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot yo'nalishlaridagi loyihalarini moliyalashtirish va mentorlik asosida rivojlantirish e'tiborimizda turibdi.


O'zLiDePning "Xalq bilim yangi" umummilliy dasturi ham Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni yanada kuchaytirish, ayniqsa, kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash va inson qadriini ulug'lashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Ushbu dastur davomida "mahalla yetilligi" hamda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan hamkorlikda ehtiyojmand oilalarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratildi.

Shu o'rinda, fraksiyamiz a'zolari xalqaro parlament platformalarida faol ishtirok etayotganini ham alohida aytish joiz. Xususan, 3-aprel kuni Buxoro shahrida o'tkazilgan O'zbekiston va Qozog'iston Parlamentlararo hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishida fraksiyamiz a'zolari ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash yuzasidan o'z taklif va tashabbuslarini ilgari surdi.

Albatta, erishilgan natijalar bilan birga, oldimda turgan muhim vazifalar ham bor. Kelgusida ham yurtimiz taraqqiyoti yo'lida faol ishlash, xalqimiz ishonchini oqlashga, avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, saylovchilar bilan muloqotni yanada kuchaytirishga, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan dolzarb vazifalar ijrosi ustidan doimiy parlament nazoratini olib borishga alohida e'tibor qaratamiz.

Aktam HAITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari.

## MILLAT IFTIXORI VA MA'NAVYIY QUDRAT MANBAI



Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat va inshootlar qurgani tarixiy manbalardan ma'lum. Amir Temur zabt etgan davlatlardagi Bag'dod, Darband va Baylaqon kabi shaharlarni qayta tiklagan. Hozirgi kunda Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududiga to'g'ri keluvchi Fanokat shahri ham ana shular jumlasidan hisoblanadi.

Sirdaryoning o'ng qirg'o'g'idagi bu qadimiy shahar qariyb bir yarim asr davomida vayron holda qolgan va uning nomi ham unutila boshlagan edi. Biroq Sohibqironning bunyodkorlik salohiyati bilan shaharning qaddi va qadri qayta tiklandi. XV asrda yashagan tarixchi Fasih Ahmad Xavofiyning "Mujmal Fasihiy" asarida Chingizxon tomonidan vayron qilingan Fanokat shahri Amir Temur farmoni bilan qayta tiklanib, to'rtinchi o'g'li sharafiga "Shohruxiya" deb nomlangani qayd etilgan. Shahar qurilishi ishlari Sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan yakuniga yetkazilgan. Bunga Amir Temurning bunyodkorlik siyosatidan kelib chiqib o'z qurilishdek qarash mumkin. Chunki temuriylar saltanatida Shohruxiya kabi qayta barpo etilgan shaharlar o'z emas. Ammo bu shaharning tiklanishi chuqur ramziy ma'no va strategik maqsadni ifodalaydi. U

## Tabarruk zamin

Toshkent yaqinida joylashgan qadimgi Shohruxiya shahridan temuriylar davriga mansub ko'plab tarixiy ahamiyatga ega topilmalar kashf etilmoqda. Qazishmalar Buyuk Ipak yo'li tarixida yangi sahifalar ochib, hududning YUNESKO Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kirishi uchun zamin yaratmoqda.

Bir zamonlar Chingizxon bosqinidan so'ng kultepaga aylangan

Fanokat shahri Amir Temurning bunyodkorlik salohiyati va davlat siyosatining natijasi sifatida qayta tiklangan. Sohibqironning mashhur so'zlari bunga oydnlik kiritadi: "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rimga o'n g'isht qo'ydirim, bir daraxt kestirsam, o'rimga o'n ta ko'chat ektdirim..." Har bir zafarli yurish va muhim voqealarni muhtasham obidalar qurish orqali nishonlash Sohibqiron saltanatida odat tusiga aylangan.

## BUYUK TEMURIYLAR BUNYODKORLIGI KO'ZGUSI

Sohibqironning nafaqat yangi yerlarni zabt etuvchi sarkardaligini, balki uning o'tmishda vayron qilingan shaharlarga yangi hayot olib kiruvchi yaratuvchanlik siyosatini ko'rsatadi.

Fanokat qadimdan Buyuk Ipak yo'lidagi muhim savdo chorrahaligidan biri bo'lgan. Uning qayta tiklanishi mintaqada savdot-sotiqni jonlantirish, yangi karvon yo'llarini ochish va temuriylar saltanatining iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan, hunarmandchilik, tijorat va madaniyat markaziga aylangan.

Asrlar o'tsa ham, Shohruxiya yodgorligi tadqiqotchilar va tarixiy qiziquvchilarning diqqatini jalb qilmoqda. Dastlabki arxeologik ma'lumotlar 1876-yilda D. Zatspepin va N. Pantusov tomonidan berilgan. 1907-yilda I. Belyayev, 1913-yilda A. Kastanye Shohruxiya to'g'risida ma'lumotlar to'plagan. Yodgorlik 1925-yilda A. Semyonov tomonidan tuzilgan Markaziy Osiyoning arxeologik yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. XX asrning o'rtalarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti hamda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi xodimlaridan iborat guruh arxeolog Yu. Buryakov rahbarligida Shohruxiyada davomiy arxeologik tadqiqot ishlari olib borgan. 1970 – 1990-yillarda vohaning antik va o'rta asrlar shaharsozligi masalalari tadqiq qilingan.

– Shohruxiyada qazishmalar hozirda ham davom etmoqda, – deydi Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti dotsenti Omon Mamirov. – Qazishmalarining maqsadi temuriylar davri madaniy qatlamlari va mahobatli qurilish qoldiqlarini aniqlash. Bu hudud tanlanishi ham Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liq. Bugungi kungacha Shohruxiyada jami hisobda 21 ta qazishma ishlari olib borilgan. O'tgan yili Milliy arxeologiya markazi



va Turkiyaning Yildirim Boyazid universiteti olimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borildi. Sababi ayni hudud yozma manbalarda Sohibqironning bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liqligi eslatib o'tiladi. Hisor hududi Amir Temur farmoniga ko'ra mudofaa devori bilan qurilgan. Yodgorlikni uzoq yillar tadqiq qilgan akademik Yu. Buryakovning ta'kidlashicha, uning barcha hududlarida ilk o'rta asr madaniy qatlamlari aniqlangan. Kul, ko'mir, ohak hamda organik va qurilish qoldiqlari aralashgan tuproq qatlami kuzatilgan. Qatlam tarkibida bosma naqshlar tushirilgan sirlangan sopol idishlar va hayvon suyaklari qoldiqlari ham topilgan. Kam hollarda oq fonga och siyohrang, ko'k rangda o'simlik motivida (islami) bezaklar tushirilgan sirlangan sopol qoldiqlarining borligi aniqlangan. Buyuk temuriylar davri kulochiligi an'analarida ayni ushbu ko'k rangli bezash uslubi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Forsiyzabon yozma manbalarda ko'k rangli bo'yoq ishlab chiqarishda asosiy mineral hisoblangan lazurit Eronga "o'zbeklar yurti"dan keltirilgan qayd etilgan. Aynan temuriylar davri kulochilik an'analarida Xitoy chinnisiga mengzab idish yasash urf bo'lgan. Bu davr kulochilik an'alarini tadqiq

qilgan S. Ilyasovning fikriga ko'ra, ushbu bezaklarning barchasi nilufar guli tasvirining turli shakllaridir. Mazkur qazishmalar davomida himoya devori bo'lmasining sharqiy tegrasiga yaqin joyda butun qozon ham aniqlangan. Bo'lmasining shimoliy tegrasiga yaqin joydagi katta o'ra tagidan qoraxoniylar davriga oid xom g'ishtdan qurilgan devor borligi ham ma'lum bo'ldi. Katta ehtimol bilan bu biror qurilma bo'lishi ham mumkin. Bo'lma ichida uning topilma va qurilmalar bo'yicha qazishma ishlari Nishonboy Qulboyev tomonidan olib borilgan. Uning shimoliy-g'arbiy burchagida diametri 40x40 sm. bo'lgan o'choq topilgan.

Qazishmalar jarayonida aniqlangan me'moriy qurilma va qo'lga kiritilgan topilmalar xususiyatiga ko'ra, so'nggi o'rta asrlar davriga oid bo'lib, Shohruxiya hududida shaharsozlik va tamaddun rivожlanishini tasdiqlaydi.

– Amir Temurning boshqaruv falsafasi davlatning kuch-qudrati faqatgina harbiy g'alabalar bilan emas, balki shaharsozlik, obodonchilik va farovonlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi, – deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi Oqqo'rg'on tumani bo'linmasi rahbari O'g'iloy Botirova. – Buyuk temuriylar davrida vayron qilingan yerlarga hayot bag'ishlash, cho'lga biyobonlar o'rni bog'roglari yaratish va vayronay xarobazorlarga yangi hayot nashidasini olib kirish Sohibqiron siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Va shu bois ham jahon tamaddunida saltanat nufuzi hamisha baland. Zotan, Amir Temur o'z tuzuklarida naql etganidek, kimki mamlakat qudratiga shubha qilsa, o'sha davrda qurdirilgan imoratlar qarasini!

Otabek ISROILOV  
("Xalq so'zi").

## Tadqiq

## SALTANATNING XOS TUZUGI

Sohibqiron Amir Temur tarix sahifalarida buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda va yetuk siyosatdon sifatida abadiy nom qoldirgan. U nafaqat qudratli saltanat barpo etdi, balki uni mustahkam boshqarishning puxta asoslarini ham yaratdi. Temurning eng muhim xizmatlaridan biri markazlashgan va barqaror davlat tizimini shakllantirganidir. U hukmdor sifatida mamlakat boshqaruvida aniq tartib-qoidalar joriy qilib, har bir amaldorning mas'uliyatini belgilab berdi. Bu esa saltanatda intizom va boshqaruv samaradorligini ta'minladi.

Amir Temur hayoti va faoliyati shartli ravishda ikki davrga bo'linadi. Birinchi davr (1360 – 1386-yillar)da u Movarounnahr hududida mustaqil va kuchli markazlashgan davlat barpo etish yo'lidagi kurash olib bordi. Ikkinchi davri (1386 – 1405-yillar) esa uning mashhur uch yillik, besh yillik va yetti yillik yurishlari bilan tarixda alohida o'rin egallaydi. Sohibqiron o'zidan avvalgi hukmdorlardan farqli ravishda davlat boshqaruvida faqat bir yoki ikki tabaqaga emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga tayandi. U davlat qudrati faqat harbiy kuchga emas, balki aholi o'rtasidagi hamjihatlik va o'zaro hamkorlikka bog'liq ekanini chuqur anglagan edi. Shu bois u ulamolalar, donishmandlar, hunarmandlar, savdogarlar va harbiylarni davlat hayotining ajralmas qismi sifatida qadrladi. Bu esa mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Amir Temur barpo etgan davlat boshqaruvi tizimi o'ziga xos tartib va intizomga ega edi. Markaziy boshqaruv – devon buzurgidan tashqari har bir viloyatda "devon" deb atalgan mahalliy boshqaruv organlari faoliyat yuritgan. Ular soliq yig'ish, tartib-intizomni saqlash, bozorlar, hammomlar, yo'llar va sug'orish tarmoqlarini nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajaragan. Har bir devonda kirim va chiqim daftarlari yuritilib, hisob-kitoblar turkiy tilda qayd etilgan ham diqqatga sazovor.

Ulug' hukmdorning qat'iy siyosatiga ko'ra, davlat ishlarida doimiy taftish va nazorat amalga oshirilgan. Amaldorlarning o'z vazifasini suiiste'mol qilishi, poraxo'rlik, maishiy buzuvchi kabi illatlar og'ir jinoyat

sifatida baholalanib, qattiq jazolangan. Bu esa davlat tizimida adolat va tartibni mustahkamlagan. Sohibqiron davlatida bor-yo'g'i yetti vazir faoliyat yuritgan bo'lib, ular mamlakat va raiyat ishlari, harbiy tizim, moliya hamda tobe hududlarni boshqarish kabi sohalarga mas'ul bo'lgan. Barcha vazirlar devonbegiga bo'ysungan holda ish yuritgan. Diqqatga sazovor jihat shundaki, Amir Temur o'z faoliyatini nazorat qilish uchun alohida ikki nazoratchini tayinlagan. Ulardan biri harbiy ishlari, ikkinchisi esa fuqarolar manfaatini kuzatib borgan va zarur hollarda hukmdorni ogohlantirib turgan.

Amir Temur har qanday qarorni qabul qilishda shoshilmagan. U davlat ishlarining "to'qqiz ulushi"ni kengash va mashvarat bilan, "bir ulushi"ni esa kuch bilan hal etishni ma'qul ko'rgan. Bu esa uning donoligi va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatidan dalolat beradi. Sohibqiron siyosatining yana bir muhim jihati insonparvarlik va bag'rikenglik edi. U turli xalq va madaniyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lib, ilm-fan ahlini doimo e'zozlagan. Qaysi yurtni zabt etmasin, o'sha yerning obro'li kishilarini hurmat bilan qabul qilib, ularga munosib vazifa va ehtimor ko'rsatgan. Shuningdek, avliyolar va ulamolalar maqbaralariga vaqf mulklari ajratib, ularni obod ziyoratgohlarga aylantirgan. Bu esa jamiyatda ma'naviy muhitning yuksalishiga yo'l ochgan.

To'lg'in BO'RIYEV,  
Samarqand davlat muzey-  
qo'riqxonasining  
tarix bo'limi mudiri.

## SOHIBQIRON SIYMOSI SAHNADA

11 – 13-aprel kunlari Samarqand shahrida Sohibqiron bobomiz tavalludining 690-yilligi munosabati bilan "Amir Temur siymosi sahnada" respublika teatrlari festivali bo'lib o'tadi.

## San'at

Madaniyat vazirligi ma'lumotiga ko'ra, festival 11-aprel kun soat 10:00 da Samarqand shahriining Bibixonim madrasasidan Register maydoniga qadar Amir Temur va temuriylar davri liboslari siymosida tantanali yurish bilan boshlanib, viloyat musiqali drama, viloyat rus drama va viloyat qo'g'irchoq teatrlarida davom etadi.

Ko'hna va hamisha

navqiron shaharda uch kun davomida o'tkaziladigan ushbu festivalda yurtimizdagi qator teatrlarning spektakllari namoyish qilinadi. Xususan, Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrlarining "Oqsaroy", Qo'qon shahar musiqali drama teatrlarining "Armonsiz o'tgan umr", Kattaqo'rg'on shahar drama teatri hamda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrlarining "Sohibqiron",

Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrlarining "Adolat fasli", Qashqadaryo viloyati qo'g'irchoq teatrlarining "Temburbekning bolaligi", Namangan viloyati musiqali drama teatrlarining "Amir Temur yoxud adolat qilichi" spektakllari tomoshabinlar e'tiboriga havola etiladi.

Roziya YUNUSOVA,  
O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti talabasi.



Rivoyatlarga ko'ra, buyuk sarkarda bobokalonimiz Amir Temur 8 – 10 yoshida shu toshni ko'tarib, jismoniy mashq qilar ekan. Hozir bu toshni yerdan uzib olib, ko'krak balandligigacha ko'tarishni unchamuncha kishi eplay olmaydi. – Buning sababi bu ish uchun faqat kuchning o'zi yetarli emas, – deydi shu qishloqlik Najmiddin Azizov. – Ko'p narsa uni to'g'ri ushlashga ham bog'liq. Qishlog'imizdan uch-to'rt kishi toshni ko'targanini ko'rganman. Boshqalar buni eplay olishmaydi. Hozir mamlakatimizning turli hududlaridan bu yerga keladigan ziyoratchilar ham "polvontosh"ga qiziqib, uni ko'tarishga bel bog'lashadi. Biroq bu ishni uddalaydiganlari kamdan-kam uchraydi. Xo'jalig'or qishlog'ida Amir Temur nomi bilan bog'liq bunday qadimiy

## ULUG' HUKMDORGA BESHIK BO'LGAN QISHLOQ

Yakkabog' tumanidagi "Xo'jalig'or ota" ziyoratgohida og'irligi salkam 100 kilogrammni tashkil etadigan katta tosh bor. Mahalliy aholi uni "polvontosh" deb ataydi.

## Moziy sirlari

ashyolar va joylar ko'p. Ulardan yana biri ziyoratgohdan biroz sharq tomonda joylashgan eski quduq hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Sohibqironning dunyoga kelishi va Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligiga barham berishi munajjimlar tomonidan bashorat qilingan ekan. Shu bois Kesh yaqinidagi qishloqlarda yashaydigan barcha homilador onalar mo'g'ullar tomonidan qilichdan o'tkazila boshlanadi. Shunda Sohibqironning volidasi Tekina xotin Xo'jalig'or qishlog'i chetidagi qamishzorga yashirinadi va Amir Temur shu yerdagi quduq yaqinida tug'iladi.

Keyinchalik bu joy yaponiyalik arxeologlar tomonidan qadimiy xaritalar asosida axtarib topilgan. Ayni paytda ushbu quduq ham to'liq saqlanib qolgan.

– Qishlog'imizning tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi, – deydi Abdusamadxon To'raxo'ja o'g'li. – Xususan, qishloqning nomi Markaziy Osiyoga islom dinini yo'yish uchun kelgan arab lashkarlaridan biri – Xo'ja Ilg'or ota bilan bog'liq. Bu haqda turli rivoyatlar ko'p. Ulardan birida aytilishicha, 700-yillar boshida Kesh bekligi (hozirgi Shahrisabz shahri) atrofida ham arab jangchilari va mahalliy aholi o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Jangda Qutaybaning mohir lashkarboshilaridan biri Xo'ja Ilg'or og'ir yaralangan. Shunda Xo'ja Ilg'or ota: "Meni tuyaga ortinglar va u qayrda to'xtasa, o'sha yerga dafn etinglar", deya vasiyat qilgan ekan. U kishining tuyasi shu qishloqqa kelib to'xtaydi. Tuyaning ortidan kelgan sahobalar mayitni tushirib, uni yuvish

uchun suv qidiradi, ammo u topilmaydi. Shundan so'ng ular Xo'ja Ilg'or otaning qilichini yerga sanchadi va ne ajabki, shu lahzada buloq otilib chiqadi. Bu buloq hozir ham bor. Aholi uni "Chillabuloq" deb ataydi.

Abdusamadxon To'raxo'ja o'g'lining qo'shimcha qilishicha, qadimda mana shu qabriston atrofida katta qo'rg'on bo'lgan. Uning hududi 14 gektarni tashkil etgan. Hozir ham qo'rg'on devorlarining ma'lum qismlari saqlanib turibdi. Tepalik pastida yer osti yo'li ham bor. Biroq kirish joylari ko'milib ketgan. Xo'jalig'or qishlog'i nafaqat tillarda doston bo'lgan qadimiy tarixi, balki bahavo so'lim tabiati, qolaversa, sayyohlar kelishi uchun qulay – Qarshi – Kitob avtomagistrali bo'yida joylashgani bilan ham diqqatga sazovor. Bu jihatlar hech shubha yo'qki, kelgusida qishloqni sayyohlik maskanlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Jahongir BOYMURODOV  
("Xalq so'zi").

Joriy yildan boshlab mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida "Ma'naviyat qalqoni" respublika kitobxonlik tanlovi o'tkaziladi.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

## Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 329. Buyurtma G-1242. 23 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mulallig qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obnami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatcheshi muharrir R. Bobojonov.  
Musahhish S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.50 Topshirildi – 00.30 1 2 3 4 5 6